

AUTIZM BOLALARDA NUTQNING O‘ZIGA XOSLIGI

Qahramonova Zebuniso Raufjon qizi

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,
Defektologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada autizm spektridagi buzilishlarga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos tomonlari yoritilgan. Nutqiy nuqsonlarning shakllanishi va darajalari, xususan, mutizm, exolaliya, intonatsion xususiyatlar va kommunikativ faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlarning sustligi asosida to‘rt guruhga ajratilgan. Har bir guruhning o‘ziga xos nutqiy belgilarini tahlil qilish orqali autizmli bolalarga individual yondashuvning muhimligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *Autizm, nutqiy nuqson, mutizm, exolaliya, kommunikativ faoliyat, nutq rivojlanishi, avtonom nutq, emotsional-irodaviy jarayonlar.*

Autizmli bolalarda nutqiy nuqsonlar kommunikativ jarayonlarning komponentlarini yetarlicha bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi. Turli xil nutqiy nuqsonlar kuzatiladi. Bolalarning bir qismida mutizm kuzatiladi. Mutizm nutqning yo‘qligi bilan namoyon bo‘ladi nutqiy kommunikatsiya va kommunikativ- talablar doirasiga bog‘liq ravishda emotsional-iroda jarayonlari nutqning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Mutizmni yuzaga kelishini nutq faoliyatining shakllanishidagi nuqson emas, balki nutqiy muloqotga bo‘lgan motivatsiyaning yo‘qligi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Biroq mutizmni ifodalanish darajasi turlicha bo‘ladi.

To‘liq mutizmni nutqning impressiv tomonini rivojlanishi juda sust ifodalangan. Alohida tovushlar va tovushlar birikmasi so‘z va ibora shaklida namoyon bo‘lmaydi hamda autizmli bolada qiziqish uyg‘otmaydi. Verbal darajadagi barchamuloqotlardan voz kechishlari natijasida ularda passiv so‘zlar zahirasini deyarli bo‘lmaydi. Eshituv diqqati zaif va rivojlanmagan. Bunday bolalarni tekshirish davomida, bolaga qaratilgan nutq ularda uni idrok etish, unga taqlid qilish xoxishi yo‘qday tuyuladi. Inson nutqi autizmli bolani qo‘rqitadi hamda unda to‘liq emotsional noqulaylikni yuzaga keltiradi. Ba‘zi bolalarda nutq rivojlanishining zamini ham yo‘qdir. Bunday nutq nuqsonlari ko‘pincha intellektual kamchiliklar bilan birgalikda yuzaga keladi. Ikkinchi guruh bolalari qisman mutizmdan qiynaladilar. Birinchi guruh bolalariga nisbatan nutqning saqlangan imkoniyatlari mavjud. Ushbu bolalarni nutqiy imkoniyatlarini nutqni to‘liq rivojlanmaganligining birinchi darajasidagi nuqsonlar bilan taqqoslash mumkin. Ushbu bolalarning bir qismida nutq nuqsonlari birinchi va ikkinchi darajadagi nutqni to‘liq rivojlanmaganligida namoyon bo‘ladi. Autizmli bolaning nutqi logopat bolaning nutqidan farqli ravishda avtonom ifodalanadi, ya‘ni nutq sotsiumga qaratilmaydi hamda alohida tovushlar birikmasi bilan ifodalanadi.

Uchinchi guruh bolalarda nutq birmuncha shakllangan bo'lib, tahminan nutqning to'liq rivojlanmaganligini ikkinchi va uchinchi darajalariga mos keladi.

Biroq ikkinchi guruhdagilar singari nutq manzilsiz, aniq bir shaxsga, biror biroyektga nutqni qaratilishi yo'qligi bilan tavsiflanadi. Nutqning rivojlanishidagi bu bosqichda autizmligini bola o'zining "men" ini so'z bilan ifodalash sohasida juda katta qiyinchiliklarga duch keladi. O'zini "men" so'zi bilan ifodalashning qiyinchiliklari autizmligini bolaning o'zini tushinishi, o'zining shaxsini shakllanishidagi murakkabliklar bilan bog'liq. Autizmligini bola o'zining ismini aytmaydi va 1 shaxsdagi olmoshni nutqida qo'llamaydi. O'zi haqida ikkinchi va uchinchi shaxsda gapiradi. Uning nutqi exolaliya, nutqiy shtamplar, tovush birikmalari, so'z birikmalari yoki alohida jumalarda ifodalanadi. Nutqining intonatsion tomoni o'ziga xos bo'lib, ovozi sun'iy, ba'zan falset ovoz bilan ajralib turadi. To'rtinchi guruhdagi bolalarda nutqining rivojlanish darajasini birmuncha yetarlichaligi bilan xarakterlanadi. Bola uzoq vaqt monologik nutqni olib bora oladi. Biroq dialogik nutqni olib borishi o'ziga xos qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Nutqiy stereotiplar, shtamplar, avtonom namoyon bo'lishning sustligi ifodalanadi. Biroq ushbu kamchiliklar yuqori nutq rivojlanish darajasi bilan yumshatiladi hamda qisman namoyon bo'ladi. Shuni takidlash joizki ajratilgan nutq buzilishlariga ega bo'lgan autizmligini bolalarning ajratilgan to'rt guruhi mustaqil tasnif bo'lib, K.S.Lebedinskaya, O.S.Nikolskaya (autizmligini dizontogenez tipiga taaluqli emas).

Autizmligini bolalarda nutqning o'ziga xos rivojlanishi ularning psixologik va emotsional holatlari bilan bevosita bog'liq. Nutqning shakllanishi nafaqat fiziologik jarayon, balki sotsial va kommunikativ ehtiyojlar bilan ham belgilanadi. Shu sababli autizmligini bolalarning nutqini rivojlantirishda individual yondashuv, ijtimoiy muhitni moslashtirish va maxsus pedagogik metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularning nutqiy rivojlanishini tahlil qilishda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini, emotsional fonini va motivatsion holatini inobatga olish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, autizmligini bolalarda nutqning o'ziga xosligi ularning emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Nutqiy rivojlanish darajasi asosida bolalarni to'rt guruhga ajratish orqali har birining individual ehtiyojlariga mos ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalar bilan ishlashda maxsus logopedik, psixologik va pedagogik yondashuv zarur bo'lib, ularning nutqiy va sotsial integratsiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi" Toshkent 2016
2. Mirzayeva, D. R. (2017). Maxsus ta'lim va defektologiya. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Matg'afurova D.O. "O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari". Oriens jurnali, 2021.
4. Nishanova Z. va boshqalar. "O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi". Ziyo istagan qalblar uchun! kutubxonasi.